

## TALABALARNING INDUVIDUVAL QOBLIYATLARINI RIVOJLANTIRISH

**Jamalova Nafisa Utkirovna**

*SamDChTI Pedagogika, psixologiya va jismoniy  
ma'daniyat kafedrasи o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada shaxslardagi qobiliyatlarning ta'lim jarayonidagi roli, qobiliyatning turlari, talabalar individual faoliyat uslubi umumiy va maxsus qobiliyatları, qiziqishlari bilan bog'liq holda shakllanishi to'g'risidagi ma'lumotlar bayon qilingan.*

**Kalit so'zlar:** *Qobiliyat, layoqat, talent, geniallik, frenologiya, jismoniy xususiyatlar, psixologik xususiyatlar, ijtimoy xususiyatlar, ma'naviy xususiyatlar.*

Shaxslarning qobiliyatlarning rivojlanishida shartli ravishda bir nechta bosqichlarni ajratish mumkin. Har bir odam o'z rivojlanishida u yoki bu ta'sirlarga, biror-bir faoliyat turlarini egallashga nisbatan yuqori sezuvchanlik davrlaridan o'tadi. Bola 2-3 yoshiga yetganida og'zaki nutqi jadal rivojlanadi, 5-7 yoshda o'qishni egallashga tayyor bo'ladi. Bolalar mакtabgacha davrning o'rta va katta yosh bosqichlarida rolli o'yinlarni berilib o'ynaydilar va rolga kirishib ketib, o'zlarida uni gavdalantirishga bo'lgan qobiliyatni sezadilar. Shuni ta'kidlash muhimki, faoliyatning maxsus turlarini egallashga bo'lgan shaylik davrlari ertami kechmi yakun topadi, agar bu qulay davrda qandaydir xususiyat rivojlantirilmay qolgan bo'lsa, keyinchalik bunday rivojlanish o'ta qiyinlashadi yoki amalga oshmaydi. Shuning uchun bola qobiliyatlarining rivojlanishi uchun uning shaxs sifatida rivojlanishining barcha bosqichlari muhimdir.

*Qobiliyatlar* – shaxsning ma'lum faoliyatdagи muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan yakka psixologik xususiyatlaridir.

*Layoqat* – asab tizimining ba'zi genetik determinlashgan anatom - fiziologik xususiyati bo'lib, bu kishida qobiliyatlar tarkib topishi va rivojlanishning dastlabki yakka tug'ma tabiiy zaminidir.

*Talent* - shaxsning ma'lum faoliyatida ifodalanadigan qobiliyatlarning yuqori darajasi.

*Geniallik* - shaxsning eng yuksak darajadagi ijodi bilan o'zini namoyon qilish hodisasi.

*Frenologiya* - odamda u yoki bu xildagi qobiliyatlarning rivojlanganligini bosh suyagining tuzilishiga qarab aniqlash mumkin degan nazariya bo'lib, bu nazariya avstriyalik vrach F.Gall tomonidan tavsiya etilgan.

Shaxsning individual xususiyatlari - bu har bir insonni boshqalardan farq qiladigan noyob xususiyatlardir. Ular quyidagi toifalarga bo'linishi mumkin:

1. Jismoniy xususiyatlar:

\* Tana tuzilishi: Bo'yi, vazni, mushak massasi, tana shakli va boshqalar.

\* Fiziologik xususiyatlar: Qon bosimi, yurak urish tezligi, nafas olish tezligi va boshqalar.

\* Sezgi organlari: Ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish va teginish qobiliyatları.

## 2. Psixologik xususiyatlar:

\* Temperament: Shaxsning hissiy reaktsiyalari, harakatlar tezligi va boshqalarni tavsiflaydi.

\* Xarakter: Shaxsning xatti-harakatlarini boshqaruvchi qoidalar va printsiplar to'plami.

\* Qobiliyatlar: Ma'lum bir faoliyatni bajarish qobiliyati.

\* Qiziqishlar: Shaxsning nimaga qiziqishini bildiradi.

\* Motivlar: Shaxsning harakatlarini rag'batlantiruvchi omillar.

\* Qadriyatlar: Shaxsning hayotda eng muhim deb hisoblaydigan narsalari.

## 3. Ijtimoiy xususiyatlar:

\* Ijtimoiy rol: Shaxsning jamiyatda egallagan o'rni.

\* Ijtimoiy mavqe: Shaxsning jamiyatdagi obro'si va ta'siri.

\* Madaniy xususiyatlar: Shaxsning o'sgan madaniyatining ta'siri.

## 4. Ma'nnaviy xususiyatlar:

\* Dunyoqarash: Shaxsning olamga bo'lgan munosabati.

\* E'tiqodlar: Shaxsning qabul qilgan g'oyalari va printsiplari.

\* Axloqiy qadriyatlar: Shaxsning to'g'ri va noto'g'ri haqidagi tushunchalari.

Shaxslarda individual xususiyatlar ularning hayotini, xatti-harakatlarini, muvaffaqiyatlarini va qiyinchiliklarini shakllantiradi. Ularni tushunish va qadrlash shaxslararo munosabatlarni yaxshilashga, o'zini o'zi anglashga va hayotda muvaffaqiyat qozonishga yordam beradi.

Istalgan qobiliyat rivojlanishining birlamchi bosqichi uning uchun zarur bo'lgan organik hosilalarning yetilishi yoki ularning asosida kerakli fundamental organlarning shakllanishi bilan bog'liq. Odatda, bu tug'ilishdan boshlab, 6-7 yoshgacha bo'lgan davrda sodir bo'ladi. Ushbu bosqichda barcha analizatorlar faoliyatining takomillashuvi, bosh miya po'stlog'i alohida sohalarining rivojlanishi va ular vazifasining bo'linishi amalga oshriladi. Bu bolada umumiy qobiliyatlarning shakllanishi va rivojlanishining boshlanishi uchun qulay sharoit yaratib beradi, bu qobiliyatlarning ma'lum darajasi maxsus qobiliyatlar keyingi rivojlanishining sharti bo'lib hisoblanadi.

Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishi maktabda, ayniqsa, kichik va o'rta sinflarda davom ettiriladi. Maxsus qobiliyatlarning rivojlanishiga avval bolalarning turli xil o'yinlari yordam beradi, so'ngra esa ularga o'quv va mehnat faoliyati o'z ta'sirini o'tkaza boshlaydi.

Qobiliyatli kishining ko'nikma va malakalari ko'p qirrali va mukammallahgan bo'ladi. Shuning bilan birga ko'nikma va malalakalar yetishmagan qobiliyatni bir munkha to'ldirish yoki undagi kamchilikni tugatish mumkin. Ko'nikmalarni umumlashmasi mohirlik deb ataladi. Mohirlik ham qobiliyatning o'zginasidir.

Har qanday qobiliyat ham murakkab bo'lib, u kishiga turli-tuman talablar qo'yadi. Agar shaxs xususiyatlari tizimi shu talabga javob bera olsa kishi faoliyatni muvaffaqiyat bilan amalga oshirish uchun o'z qobiliyatligini ko'rsata oladi, agarda xususiyatlardan qaysi biri rivojlanmagan bo'lsa, shaxs mehnatning muayyan turiga nisbatan ham qobiliyatli deb baholanadi. Har bir qobiliyatning o'ziga xos tuzilishi mavjud. Qobiliyat tarkibida tayanch va yetakchi xususiyatlarni, muayyan asosiy yoki yordamchi xususiyatlarni farq qilish lozim.

Amaliy faoliyatning ba'zi ko'rinishlarida shaxsning irodasi oldingi o'ringa chiqadi. Qobiliyat tuzilish ham barqaror, ham o'zgaruvchandir. Qobiliyatning kengligi va yo'nalishiga ko'ra 2 turi mavjud. 1.Maxsus insoniy qobiliyatlar. Ijtimoiy-tarixiy tabiatga ega bo'lib, ijtimoiy hayot va taraqqiyotni ta'minlaydi. Maxsus insoniy qobiliyatlar o'z navbatida umumiy va xususiy qobiliyatlarga bo'linadi. 2.Umumiy qobiliyatlar. Insonning turli faoliyatlari muvaffaqiyatini ta'minlovchi aqliy qobiliyatlar xotira va nutqning rivojlanganligi, qo'l harakatlarini aniqligi va boshqa xususiyatlardan iborat.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. F.I.Xaydarova, N.I.Xalilova, „Umumiy psixologiya”darsligi (2009).
- 2.EG’oziyev.,„Umumiy psixologiya” Toshkent-2002.